

## **BUDJET TASHKILOTLARIDA MAHSULOT (ISH, XIZMAT) ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA ULARNI SOTILISHI HISOBINING NAZARIY MASALALARI**

*Xudayberdiyev Nizomiddin Qurbonqulovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi, nqx19791@gmail.com*

**Annotatsiya.** Tezisdan budjet tashkilotlarida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari va ularning sotilishi hisobining nazariy masalalari tadqiq etilgan. “Xarajat”, “tannarx” va “realizatsiya” tushunchalariga oid ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, budjet tashkiloti sharoitiga moslashtirilgan mualliflik ta’riflari asoslangan. Xarajatlarni tasniflashning moliyalashtirish manbasi belgisi bilan to’ldirilgan besh belgili tizimi taklif etilgan. Tadqiqot natijalari budjet hisobi nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** xarajat, tannarx, kalkulyatsiya, realizatsiya, budjet tashkiloti, moliyalashtirish manbasi, rivojlantirish jamgʻarmasi, hisob tamoyillari.

### **Kirish**


Budjet tashkilotlariga, xususan oliy ta’lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berilishi ularning ishlab chiqarish-tijorat faoliyati hisobiga boʻlgan ilmiy-nazariy talabni keskin oshirdi. Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 60-moddasiga muvofiq, rivojlantirish jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan daromad realizatsiyadan tushgan tushumlar va ishlab chiqarish xarajatlari oʻrtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanar ekan, xarajatlar va sotish hisobining nazariy asoslari aniq belgilangan boʻlishi zarur. Biroq mavjud ilmiy ta’riflar asosan tijorat tashkilotlariga moʻljallangan boʻlib, budjet tashkilotlarining oʻziga xosligini yetarlicha qamrab olmaydi. Tezisning maqsadi — mazkur hisob yoʻnalishining tayanch tushunchalarini tizimlashtirish va ularga budjet tashkiloti xususiyatlarini aks ettiruvchi aniqlik kiritishdan iborat.

### **Asosiy qism**

“Xarajat” kategoriyasiga oid ilmiy yondashuvlarni qiyosiy o‘rgangan holda, biz ularni oltita yo‘nalishga — maqsadli-resurs (Ch. Xorngren, S. Datar, M. Rajan), nazorat-uslubiy (K. Drueri), strategik (D. Xansen, M. Mouen), moliyaviy hisobot elementlari (A. Karimov va boshq.), boshqaruv-tahliliy (A.X. Pardayev) hamda kalkulyatsion (R.D. Dusmuratov) yondashuvlarga tizimlashtirdik. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ushbu ta’riflar bir-birini inkor etmaydi, biroq ularning barchasida budjet tashkilotlarining o‘ziga xosligi — smeta asosidagi moliyalashtirish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning parallel harakati, notijorat maqsadning ustuvorligi — aks etmagan.

Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida quyidagi mualliflik ta’rifini taklif etamiz: budjet tashkiloti sharoitida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari — bu tashkilotning asosiy, ya’ni byudjetdan moliyalashtiriladigan faoliyatidan farqli ravishda, mahsulot tayyorlash, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida iste’mol qilingan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning pul shaklidagi ifodasi bo‘lib, ular tegishli daromadlar bilan muvofiqlashtirilgan holda alohida hisob obyekti sifatida tan olinadi. Realizatsiya tushunchasiga esa quyidagi ta’rifni beramiz: budjet tashkilotida realizatsiya — bu buyurtmachi oldidagi bajarilish majburiyatining to‘liq yoki qisman bajarilishi natijasida yaratilgan iqtisodiy naf ustidan nazoratning buyurtmachiga o‘tishi bo‘lib, u daromadning tan olinishi va rivojlantirish jamg‘armasi daromadining shakllanishi orqali aks ettiriladi. Bu ta’rifning yangiligi — sotishni hujjat imzolash fakti bilan emas, bajarilish majburiyati bilan bog‘lashi va qisman bajarilishni ham realizatsiya sifatida tan olishidir.

Tadqiqotimizning muhim natijalaridan biri — budjet tashkilotlarida xarajatlarni tasniflashning besh belgili tizimini ishlab chiqishdir (1-rasm). Iqtisodiy adabiyotlarda an’anaviy qo‘llaniladigan to‘rtta belgi bilan bir qatorda, biz beshinchi belgini — moliyalashtirish manbasiga ko‘ra tasniflashni kiritishni taklif etamiz.



### 1-rasm. Budjet tashkilotida xarajatlarni tasniflashning besh belgili tizimi

*Manba: iqtisodiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Beshinchi belgi tijorat tashkilotlari uchun ahamiyatsiz bo'lsa-da, budjet tashkilotida hal qiluvchi rol o'ynaydi: byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar smeta intizomi doirasida nazorat qilinsa, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidagi ishlab chiqarish xarajatlari tannarx kalkulyatsiyasi va moliyaviy natija mexanizmi orqali boshqariladi. Ikkala mablag' oqimining aralashib ketishiga yo'l qo'ymaslik, bizning nazarimizda, ushbu sohada hisobni tashkil etishning asosiy uslubiy talabidir.

Shuningdek, tadqiqot natijasida mazkur hisob yo'nalishining beshta o'zaro bog'liq tamoyilini asosladik (1-jadval). Ushbu tamoyillar xarajatlar va sotish hisobini tashkil etishning nazariy asosini tashkil etadi.

#### 1-jadval

#### Budjet tashkilotida ishlab chiqarish-tijorat faoliyati hisobining tamoyillari

| Tamoyil    | Mohiyati                                                                                                          |
|------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Alohidalik | Ishlab chiqarish-tijorat faoliyati xarajatlari va daromadlari asosiy faoliyatdan ajratilgan holda hisobga olinadi |
| Muvofiqlik | Davr daromadi aynan shu daromadni keltirgan xarajatlar bilan solishtiriladi                                       |

|                        |                                                                                       |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| To'liqlik              | Tannarxga faqat ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar to'liq va asosli kiritiladi |
| Hisoblash              | Daromad va xarajatlar pul harakatidan qat'i nazar tegishli davrda tan olinadi         |
| Nazorat qilinuvchanlik | Hisob axboroti mas'uliyat markazlari kesimida shakllantiriladi                        |

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

### **Xulosa**

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, "xarajat" va "realizatsiya" tushunchalariga budget tashkiloti sharoitiga moslashtirilgan mualliflik ta'riflari asoslandi, ularning yangiligi moliyalashtirish manbalarini chegaralash va bajarilish majburiyati mezonlarini qamrab olishidadir. Ikkinchidan, xarajatlarni tasniflashning an'anaviy to'rt belgisi budget tashkilotlariga xos beshinchi belgi — moliyalashtirish manbasiga ko'ra tasniflash bilan to'ldirildi. Uchinchidan, mazkur hisob yo'nalishining beshta tamoyili (alohidalik, muvofiqlik, to'liqlik, hisoblash, nazorat qilinuvchanlik) asoslandi. Ushbu nazariy natijalar budget hisobi nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi va keyingi empirik hamda amaliy tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O'RQ-360-son, 60-modda. – URL: <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 16th ed. – New York: Pearson Education, 2021. – 976 p.
3. Drury C. Management and Cost Accounting. – 11th ed. – London: Cengage Learning, 2020. – 848 p.
4. Hansen D.R., Mowen M.M. Cost Management: Accounting and Control. – 6th ed. – South-Western: Cengage Learning, 2017. – 832 p.
5. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Fan va

texnologiya, 2013. – 476 b.

6. Pardayev A.X., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2008. – 368 b.

7. Ostonokulov A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2021. – 208 b.